

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.39/30.11.2020.Yu/S.128.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY MARKAZI**

SHADMANOV ADXAM XURSANBAYEVICH

**YANGI O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI
INSTITUTLARINING INSON HUQUQLARINI HIMOYA
QILISH BO‘YICHA FAOLIYATI
(NAZARIYA VA AMALIYOT MASALALARI)**

12.00.13 – Inson huquqlari

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy(PhD)

Shadmanov Adxam Xursanbayevich

Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyati (nazariya va amaliyot masalalari).....3

Шадманов Адхам Хурсанбаевич

Деятельность институтов гражданского общества по защите прав человека в Новом Узбекистане (вопросы теории и практики)25

Shadmanov Adkham Khursanbaevich

Activities of civil society institutions to protect human rights in the New Uzbekistan (issues of theory and practice).....47

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works52

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.39/30.11.2020.Yu/S.128.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY MARKAZI**

SHADMANOV ADXAM XURSANBAYEVICH

**YANGI O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI
INSTITUTLARINING INSON HUQUQLARINI HIMOYA
QILISH BO‘YICHA FAOLIYATI
(NAZARIYA VA AMALIYOT MASALALARI)**

12.00.13 – Inson huquqlari

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/yu1266 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://nhrc.uz/oz/menu/avtoreferat>) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saidov Akmal Xolmatovich
yuridik fanlar doktori, professor, akademik

Rasmiy opponenlar:

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Xolbekov Abdug‘ani Jumanazarovich
sotsiologiya fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.39/30.11.2020. yu/S. 128.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “18”-dekabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100029, Toshkent shahar, Islom Karimov ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (99871) 239-13-58; e-mail: info@nhrc.uz).

Dissertatsiya bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100029, Toshkent shahar, Islom Karimov ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (99871) 239-13-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil __ - _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil __ - _____ dagi __-son reestr bayonnomasi).

M.A. Tillabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

O‘.S. Ochilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

A.A. Tulyaganov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda shaxs qadriyatini, huquq va erkinliklarini ta'minlash, ochiq, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali global, turli mintaqalar va davlatlar miqyosida barqaror rivojlanish, taraqqiyot va farovonlikni ta'minlash xalqaro tashkilotlar va barcha davlatlarning dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki xalqaro munosabatlarda o'zaro ishonch kamayib, turli kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ortishi, qurolli mojarolar, nizo va to'qnashuvlar, shafqatsiz raqobat muhiti yuzaga kelishi, yer yuzida iqlimning keskin o'zgarishi, suv va boshqa tabiiy resurslar kamayishi, ekologik falokatlar, shuningdek global, mintaqaviy va davlatlar darajasida tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash sohasidagi ko'plab yangi xavf-xatarlar yuzaga kelmoqda. Bu boradagi faoliyat samaradorligini oshirish dunyo hamjamiyatining doimiy e'tiborida bo'lib, so'nggi 30 yilda Birlashgan Millatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida 200 dan ziyod turli rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar, xartiya va konvensiyalarning qabul qilinganligi sohaga nisbatan alohida munosabat rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Jahonda fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyat samaradorligini oshirish, mavjud yangi tendensiya va yo'nalishlar asosida ta'sirchan va natijador mexanizmlarni joriy etish zarurati bu borada chuqur ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishini taqozo etmoqda. Inson huquq va erkinliklarini munosib ta'minlash bilan bog'liq murakkab jarayonda muammolarni faqatgina inson qadri, huquqlari va erkinliklarini samarali ta'minlash va himoyalash hamda ushbu maqsadda dunyo davlatlari, parlamentlari, biznes hamjamiyati, fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro samarali hamkorligi va hamjihatligiga tayangan holdagina hal etish mumkinligi alohida e'tirof etilmoqda¹. Shu jihatdan, fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini ishonchli va munosib himoya qilish bo'yicha mavjud masalalarning nazariy va amaliy yechimini topish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2017-yildan boshlab mamlakatimiz taraqqiyotining sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichi boshlanishini belgilovchi "inson qadri uchun" ezgu g'oyasiga asoslangan holda siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalarda keng ko'lamli va jadal islohotlar, davlat va konstitutsiyaviy tizimda izchil tub o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Boshqacha aytganda, insoniyat taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratuvchi "to'rtinchi sanoat revolyutsiyasi"ning boshlanishi, "axborot, raqamli va bilimli jamiyatlar" yuzaga kelishi, "sun'iy aql inqilobi", eski qadriyatlar qayta ko'rib chiqilishi, demokratik va barqaror rivojlanish tamoyillarining hayotga keng tatbiq etilishi, inson kapitali taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biriga aylanishi bilan

¹ Secretary-General's remarks at the High-Level Political Forum on Sustainable Development; Secretary-General's remarks at the High-Level Political Forum on Sustainable Development // [https:// www.un.org/ sg/en/ content/sg/ statement/2023-07-17](https://www.un.org/sg/en/content/sg/statement/2023-07-17)

bog‘liq mutlaqo yangi bir tarixiy davr boshlanmoqda². O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli fundamental kitobida ochiq va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, fuqarolik jamiyati institutlarini inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashga keng jalb etish masalalari mamlakatimizdagi islohotlar o‘zagini, taraqqiyotimizning yangi modeli asosini tashkil etishi alohida ta‘kidlagan³. Shu bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida, shuningdek inson qadr-qimmat, huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashdagi faol ishtirokini ta‘minlash uchun zarur sharoitlar yaratish, jumladan huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish masalalari mazkur mavzu yuzasidan tadqiqot olib borish zaruratini vujudga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan Farmon va qarorlari, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi”, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunlar hamda mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik-huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fuqarolik jamiyati, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi munosabatlar, davlat-xususiy sherikchilik, fuqarolik jamiyatining rivojlanishidagi yangi tendensiyalar yo‘nalishlari bo‘yicha milliy va horijiy mutaxassislar diqqatga sazovor bir qancha ilmiy ishlarni yaratganlar. Ushbu tadqiqotlarning o‘rganilishi hozirda dolzarb bo‘lgan hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni olib borishga puxta zamin yaratmoqda.

Bundan tashqari, jahon tajribasi inson qadri, huquqlari va erkinliklarini samarali ta‘minlanishi va himoyalaniishi har qanday davlatning barqaror va izchil rivojlanishining garovi va asosi ekanligidan dalolat beradi. Inson huquqlarini

² Yangi сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи (14.07.2023 й.): <https://president.uz/uz/lists/view/6484>; Преобразование нашего мира: Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года. Резолюция ГА ООН А/RES/70/1 от 21 октября 2015 г.: <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N15/291/92/PDF/N1529192.pdf?OpenElement>; Клаус Шваб. Тўртинчи sanoat инкилоби (таржимон С. Қосимова)/Т.: “Hilol nashr”, 2022 й., 248 б.

³ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси (тўлдирилган иккинчи нашр). – Т.: Ўзбекистон, 2022 й., 416 б.

himoya qilish, fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi faoliyati, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro manfaatli aloqalari bo‘yicha xorijda ham talaygina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, ular sirasiga XX-XXI asr boshlarida ijod etgan mashhur olimlar A.Tokvil, G.Almond, T.Berb, X.Arendt, K.Shmitt, P.Kozellek, Y. Xabermas, N.Lumann, T. Parsons, Piter L. Berger, Blandin Krigel, J.Koen, E.Karato, D. Shmidt, G.Diligenskiy, T.Peregudov, B.Maraxov, B.Gutorov, Z.K.Golenkova, E. Guldner, L.Zandstrom, K.Xann, P.Darendorf, E.Giddens, E.Gellner, T.Elieson, T.Xenderson kabi xorijiy tadqiqotchilarning asarlari alohida o‘rin tutadi.

Inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, ularning zamonaviy konsepsiyalarini o‘rganish, ularning tarixi va nazariyasi bilan bog‘liq masalalarni, falsafiy-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy asoslarini kompleks o‘rganishda zamonaviy o‘zbek tadqiqotchilarining asarlari alohida e‘tiborga loyiqdir. Ulardan A.Saidov, F.Bakayeva, Sh.Bafojev, X.Isakov, Z.Islomov, B.Ismoilov, A.Matchanov, A.Muminov, O.Okyulov, M.Rustambayev, Z.Ruziyev, M.Tillabayev, M.Turg‘unov, J.Toshqulov, A.Tulyaganov, M.Usmanov, O.Fozilov, K.Javakova, J.Shirinov, G.Yuldasheva, Sh.Yakubov, M.Qirg‘izboyev, H.Yunusov, O.Abdudzimov va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini himoya qilish borasidagi faoliyatining ayrim jihatlarini fragmentar darajada qamrab olgan. Mazkur tadqiqot doirasida esa chuqur izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratining huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy asoslari, shuningdek fuqarolik institutlarining mamlakatni barqaror rivojlantirish, inson qadr-qimmati, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik va boshqa huquqlarini taminlashga qo‘shayotgan hissasi va boshqa tegishli masalalarni fanlararo yondashuv (huquq, falsafa, siyosatshunoslik, iqtisod va boshqalar) asosida har tomonlama chuqur o‘rganish zarurligi asoslab berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2017-2023- yillardagi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi hamda Barqaror rivojlanish markazi tomonidan F.Ebert nomli fond (Germaniya) ko‘magida amalga oshirilgan “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish orqali jamiyatning barqaror rivojlanish maqsadlari haqida xabardorligini oshirish” mavzusidagi mustaqil amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan⁴.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining inson qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash borasidagi faoliyatini rivojlantirish masalalarini kompleks o‘rganish hamda shu asosda ularning inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga

⁴ Қаранг: М.Усманов, А.Шадманов, Д.Қаюмова, К.Хўжамова, Н.Сафаров, С.Ктайбеков. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларини жалб қилиш орқали жамиятнинг Барқарор ривожланиш мақсадлари ҳақида хабардорлигини ошириш. Тадқиқот натижалари. – Т.: БРМ, 2023, 271 б.

oid faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash borasidagi global va milliy maqsad va vazifalar bilan uyg‘unligi, o‘zaro chambarchas bog‘liqligini ochib berish;

kuchli, rivojlangan, ochiq va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik institutlarini kuchaytirish orqali inson huquqlarini samarali himoyalash va ta‘minlash yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqish;

“Inson huquqlari” va “fuqarolik jamiyati”ning tarixiy va zamonaviy konsepsiyalari, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq normalari asosida Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ta‘minlash va himoyalash bo‘yicha milliy qonunchilikning rivojlanish holatini tahlil etish;

Yangi O‘zbekistonda “inson qadri uchun” tamoyili asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratishning huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari aniqlash;

demokratik mamlakatlarning fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularni inson qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, global va milliy Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi roli va ahamiyatini oshirish borasidagi tajribasidan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti huquqiy islohotlar va fuqarolik jamiyati rivojlanishi jarayoni, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini ta‘minlash hamda shu maqsadda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik nazorati institutlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi amaldagi qonunchiligi, bu yo‘nalishdagi huquqni qo‘llash amaliyoti, ilg‘or xorijiy davlatlarning inson huquqlarini himoya qilish borasidagi boy tajribasini o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy ishlanmalarni tadqiq etish, ushbu yo‘nalishda mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, eng asosiysi Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy asoslarining holati va rivojlanish istiqbollari tahlil etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, sotsiologik, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirok etishini ta‘minlashni Vazirlar Mahkamasining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilash asoslab berilgan;

fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi lozimligi hamda ularning budjet jarayonida ishtirok etish tartibi va shakllari qonun bilan belgilanishi kerakligi asoslantirilgan;

davlat boshqaruvi organlariga nodavlat notijorat tashkilotlaridan va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushadigan loyihalarni ko‘rib chiqish, umumlashtirish va ularni baholash jarayonida davlat boshqaruvi organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari ham ishtirok etishi shartligi asoslab berilgan;

ijtimoiy sheriklik jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish sohasida ham amalga oshirilishi lozimligi, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining asosiy huquqlaridan biri bo‘lishi lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dunyoda demokratik islohotlar, jumladan konstitutsiyaviy o‘zgarishlar, aksariyat hollarda tashqi va ichki xavf-xatar va tahdidlarga javoban hamda inson huquqlari “Yangi avlodlarini” ta‘minlash maqsadlarida amalga oshirilishi, Barqaror rivojlanish global maqsadlariga erishish va fuqarolar farovonligini ta‘minlashda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga egaligi asoslab berilgan;

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyalari, jumladan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, qonun hujjatlariga inson huquqlari, barqaror rivojlanish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlashda ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

“Inson qadri, huquq va erkinliklarini ta‘minlash sohalaridagi jamoatchilik nazorati va ijtimoiy hamkorlik”, “fuqarolik jamiyati institutlari”, “volontyorlik”, “ijtimoiy sheriklik sohaları” kabi tushunchalarga mualliflik ta‘riflari ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasining 2019-2024-yillardagi ish rejalarini hamda ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘yicha qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

“Konstitutsiyaviy islohotlar: xorijiy davlatlar tajribasi” (2-jildi) va “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish orqali jamiyatning Barqaror rivojlanish maqsadlari haqida xabardorligini oshirish” nomli jamoaviy monografiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalari mazkur tadqiqot va boshqa tegishli hujjatlar orqali rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda, jumladan respublika va xalqaro konferensiyalari materiallari to‘plamlarida, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan maxsus jurnallarda, xorijiy ilmiy nashrlarda e‘lon qilindi, vakolatli tuzilmalar tomonidan

tasdiqlandi va amaliyotga tatbiq qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan norma ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti va milliy qonunchilikni takomillashtirishda hamda Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining rivojlanish istiqbollari asoslarini chuqur o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining, xususan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, himoya qilish borasidagi faoliyati holati va rivojlanish istiqbollarini ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tahlili asosida, tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagicha foydalanilgan:

fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirok etishini ta'minlashni Vazirlar Mahkamasining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilashga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 115-moddasi 6-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2023-yil 13-iyundagi 04/2-10/117-23-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini kuchaytirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining mas'uliyat va javobgarligini oshirishga xizmat qilgan;

fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi hamda ularning budjet jarayonida ishtirok etish tartibi va shakllari qonun bilan belgilanishiga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 148-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2023-yil 13-iyundagi 04/2-10/117-23-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi Davlat budjetining shakllantirilishi va ijro etilishi jamoatchilik nazorati ostida bo'lishi, bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qilgan;

davlat boshqaruvi organlariga nodavlat notijorat tashkilotlaridan va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushadigan loyihalarni ko'rib chiqish, umumlashtirish va ularni baholash davlat boshqaruvi organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari tomonidan amalga oshirilishiga oid taklifdan O'zbekiston

Respublikasining 2020-yil 7-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-629-son Qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 25-sentabrdagi “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-376-sonli Qonuni 21-moddasi o‘n birinchi qismining birinchi jumlasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2023-yil 2-iyundagi 04/10-10-43-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi nodavlat notijorat tashkilotlaridan va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushadigan loyihalarni ko‘rib chiqish, umumlashtirish va ularni baholash huquqi davlat boshqaruvi organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlariga berilishiga xizmat qilgan;

ijtimoiy sheriklik jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish sohasida ham amalga oshirilishi mumkinligiga oid, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ishtirok etishni nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining huquqlaridan biri sifatida belgilashga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-yanvardagi “Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-456-son Qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 25-sentabrdagi “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-376-sonli Qonuni 5-moddasi birinchi qismining o‘n birinchi xatboshisini hamda 23-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2023-yil 2-iyundagi 04/10-10-43-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashish va aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ishtirok etishiga oid faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekistonda va xorijda 2016-2023-yillarda tashkil etilgan 32 tadan ortiq respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 17 tadan ortiq xalqaro konferensiya, seminar va davra suhbatlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 7 paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 243 (ikki yuz qirq uch) betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi) qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fuqarolik jamiyati va inson huquqlari uyg‘unligining ilmiy-nazariy, metodologik va huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida fuqarolik jamiyati va inson huquqlari masalalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti amaliyoti doirasida o‘rganilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi samarali ta‘minlanadigan, ochiq va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyoning aksariyat davlatlari ana shunday inson huquqlari va erkinliklari samarali himoyalangan ochiq, adolatli, faol va “axboriy” fuqarolik jamiyatini shakllantirishni o‘z taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab oldilar. Qator olimlar, siyosatchilar va huquqshunoslar tomonidan dunyoning etakchi ilmiy markazlari va universitetlarida mazkur masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasi so‘nggi 300 yil ichida turli xil ma‘nolarda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, dunyo va xorijiy davlatlar zamonaviy siyosiy-huquqiy amaliyotida bu tushunchaga hali hanuz aniq ta‘rif berilmagan. Nazariy jihatdan (yurisprudensiya, global tadqiqotlar, siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa) fuqarolik jamiyati, uning davlat, biznes, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va boshqalar bilan aloqasi haqida yagona qarash mavjud emas. Ushbu tushuncha bugungi kunda – zamonaviy globallashuv davrida ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar fuqarolik jamiyati va uning institutlarini inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta‘minlashning zarur va o‘ta muhim sharti, deb e‘tirof etadilar. Shu nuqtai nazardan, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni shakllantirishga nafaqat ma‘lum bir davlatning, balki global darajadagi sa‘y-harakatlarni talab qiluvchi insoniyat oldida turgan vazifalardan biri sifatida qaraladi.

XXI asrda BMT, YXHT, Yevropa Ittifoqi, ShHT, MDH va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida fuqarolik jamiyati institutlarining (FJI) roli va ahamiyatini oshirishga, Mingyillik rivojlanish maqsadlari va BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini ro‘yobga chiqarish jarayonlariga jalb qilishga qaratilgan 100 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Dissertatsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyatining huquqiy asoslari atroflicha ko‘rib chiqilgan. Fuqarolik

jamiyati institutlari faoliyati bilan bog‘liq xalqaro huquqiy normalar va umume’tirof etilgan tamoyillar tahlili:

birinchidan, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, uning institutlari faoliyati insonning barcha fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini, shuningdek ularning rivojlanishini ta’minlash va himoya qilishning uzviy va muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishini;

ikkinchidan, barcha sohalarda taraqqiyotning eng muhim sharti sifatida erkin va mustaqil fuqarolik jamiyati faoliyati uchun xavfsiz, ochiq, erkin va qulay muhit yaratishga qaratilganligini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, global va mintaqaviy miqyosdagi tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati uchun qulay makonni shakllantirish borasida qator muammolar ham aniqlandi. Davlatlarning FJIning, jumladan, huquq himoyachilarini to‘liq nazorat qilishga intilishi, milliy xavfsizlikni ta’minlash, nafrat va zo‘ravonlikni qo‘zg‘atuvchi noto‘g‘ri ma’lumotlar va xabarlarini tarqatishga kurashish bahonasida FJI faoliyati ustidan nazorat va kuzatuvni kuchaytirish, yot fikrni bostirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, moliyalashtirish va ro‘yxatga olishning murakkab qoidalarini joriy etish kabilar ushbu muammolar sirasiga kiritiladi.

FJI bilan o‘zaro hamkorlik borasida BMTning roli va ahamiyatini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, BMT va FJI o‘rtasidagi adolat va o‘zaro manfaat tamoyillariga asoslangan hamkorlikni, BMTning faoliyatida FJI ishtirokini ta’minlash, ularni BMT axborot va infratuzilmasidan foydalanishini osonlashtirish, buning uchun qulay sharoitlarni yaratish, jalb qilingan FJIning xavfsizligini, jumladan onlayn xavfsizligini ta’minlash kabilar nazarda tutilgan.

BMT hujjatlarida davlatlarning xalqaro va mintaqaviy darajada ishtirok etish huquqini amalga oshirish bilan bog‘liq holda so‘z erkinligi, tinch yig‘ilishlar va birlashmalar erkinligi huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va ilgari surish bo‘yicha majburiyatlari ham nazarda tutilgan.

Shu o‘rinda FJIning faoliyati bilan bog‘liq xorijiy tajriba tahlili, fuqarolik jamiyati faoliyati uchun xavfsiz va qulay shart-sharoitlarni inson huquqlari xalqaro standartlariga asoslangan barqaror milliy huquqiy tizimni shakllantirish orqaligina yaratish mumkinligi haqida xulosa qilish imkonini berdi.

O‘zbekiston olimlari tomonidan jahonning 180 dan ziyod davlatlari qonunchiligini tahlil qilish asosida ushbu sohadagi ilg‘or tajribalar aniqlandi va nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) faoliyatini huquqiy tartibga solish (ularni tashkil etish, ro‘yxatdan o‘tkazish, faoliyatini tugatish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlash, o‘z a’zolarining va jamiyat manfaati uchun qanday faoliyat bilan shug‘ullanishiga ruxsat berilishi kerak v.b.) bo‘yicha umumiy tavsiyalar va tamoyillar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlari bo‘yicha faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish”** deb nomlangan bo‘lib, unda uyushmalar va tinch yig‘ilishlar erkinligi, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik institutlari rivojlanishi bo‘yicha dunyo tajribasi hamda Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari,

jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklikning huquqiy asoslari rivojlanishi atroflicha o'rganilgan.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarning aksariyati shaxs va jamiyat erkinliklarini himoya qilish bilan bevosita bog'liq va bu sohada kamsitishlarga yo'l qo'yimaslik tamoyiliga asoslangan. Bunda uyushmalar va tinch yig'ilishlar erkinligi, davlat ishlarini yuritishda ishtirok etish huquqi hamda so'z erkinligi fuqarolarni ijtimoiy faolligini oshirish, demokratik o'zgarishlarga safarbar qilish imkonini beruvchi huquqlar sifatida ta'riflanib, ularning amal qilishi fuqarolik jamiyati shakllanishining zaruriy va majburiy sharti hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu huquqlar boshqa ko'plab fuqarolik, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy huquqlarni amalga oshirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik institutlarining qo'llab-quvvatlanishi va rivoji fuqarolik jamiyati shakllanishi va taraqqiyotiga xizmat qiluvchi zamonaviy xalqaro tendensiyalar sirasiga kirishini ko'rsatadi⁵.

Inson huquqlari xalqaro huquqida jamoatchilik nazorati institutiga jamiyatning demokratlashganligi va inson qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklari ta'minlanishining garovi sifatida qaraladi. BMTning sobiq maxsus ma'ruzachisi K.Kufaning fikriga ko'ra, "demokratik jamiyat, uning madaniy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy asoslaridan qat'iy nazar, bir qator tamoyillar va institutlar bilan belgilanadi. Masalan, pulyuralizm, qonun ustuvorligi, qonuniylik, siyosiy teng huquqlilik, jamoatchilik nazorati va hukumatning jamiyat oldidagi hisobdorligi, o'z navbatida, inson huquqlari va erkinliklari konsepsiyasiga asoslanadi"⁶.

Bir qator mamlakatlarda davlat boshqaruvining ayrim tarmoqlarini (masalan, inson huquqlari, moliya kabi sohalarda) nazorat qilish bo'yicha faoliyat majburiy hisoblanadi. Tegishli davlat organlari esa, o'z navbatida, FJlar tomonidan ushbu sohada nazoratni tashkil etish va amalga oshirishni ta'minlovchi idoraviy, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishi va tasdiqlashi shart⁷.

⁵ Қаранг: А.Муминов, Э.Нишанбаева, А.Абдухалилов. Ижтимоий шериклик (услугий қўлланма)// "Universitet" nashriyoti, 2018 й., 84 б.; Усманов М.Ш. Состояние и перспективы развития гражданского общества в Узбекистане (монография). – Ташкент: «Adabiyot uchqunlari», 2019. 424 с.; Нишанбаева Э. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий шериклик тамойиллари. –Т.: Шарк, 2015. –В.174; Усманов М., Ишматова И. Ўзбекистонда ижтимоий ҳамкорлик институтининг мустақамланиши (ҳолати ва истиқболлари) // "Фалсафа ва ҳуқуқ", № 16/1, 2016. -С.160-168; Ўтамурадов А. Фуқаролик жамиятининг ҳуқуқий асослари // Ўқув-услугий қўлланма. –Т.: "Brok class Servis", 2017; CIVIC SPACE 2040. Bellagio Outcome Report. International Center for Not-for-Profit Law (March 2020) - <https://www.icnl.org/wp-content/uploads/CS2040-08.2019-Outcome-Report-vf.pdf>; Международный Центр Некоммерческого Права 2023. Правовая база для финансовой устойчивости НКО в странах Центральной Азии (обзор законодательства) - <https://www.icnl.org/wp-content/uploads/Financial-Sustainability-Central-Asia-RU-vf.pdf>; Сборник материалов по международным стандартам добросовестного управления и гражданского пространства. Составитель Добрецова Н. Н., председатель правления ОО «Институт политики развития». Бишкек: 2021. – 216 с.

⁶ На пути к системе отчетности в Секретариате ООН. Резолюция ГА ООН А/RES/64/259 от 29 марта 2010 г. - <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N09/477/39/PDF/N0947739.pdf?OpenElement>; Зариска Генерального секретаря ООН "Системы подотчетности в рамках системы ООН" (А/66/710/Add.1, 2012 г.) - <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N12/244/89/PDF/N1224489.pdf?OpenElement>; Системы подотчетности в рамках системы ООН (JIU/REP/2011/5) - <https://www.fao.org/3/mf915r/mf915r.pdf>; Терроризм и права человека. Второй доклад о ходе работы, подготовленный Специальным докладчиком, К. Куфой (документ ЭКОСОС ООН E/CN.4/Sub.2/2002/35, 17.07.2002) – <https://www.unodc.org/pdf/crime/terrorism/unhchr/35r.pdf>

⁷ Қаранг: Burwell S. Cutler, Louis Domeratzky. The Problem of Government Control//The Annals of the American Academy of Political and Social Science, Vol. 83, International Economics (May, 1919), pp. 274-286; Гончаров В.В. Правовое регулирование института общественного контроля: международный и зарубежный

Huquqshunoslik va turdosh fanlarda jamoatchilik nazorati atamasi keng ma'noda fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning barcha shakllarini qamrab oladi, u "shaffoflik" ("transparency") va "ishtirok etish" ("participation") tushunchalarini ham qamrab oladi⁸. Xususan, G'arb demokratiyasi zamonaviy rahnamolari fikriga ko'ra, dunyoda yuzaga kelayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, xavfsizlik va ekologiya sohalaridagi o'ta xatarli va qiyin vaziyatda davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratining asosiy tamoyillari hokimiyatning shaffofligi va hisobdorligi hisoblanadi.

Bunda, AQSh va Yevroittifoq davlatlarida hokimiyat organlarining "shaffofligi" uning fuqarolik jamiyati oldidagi ochiqligi ("openness") va hisobdorligini ("accountability") oshirishni nazarda tutadi. Bu davlat va munitsipal hokimiyat organlarining fuqarolarning bilish huquqini ("right to know") amalga oshirish bo'yicha faol choralar ko'rish majburiyatini ham anglatadi. Bunda, o'z navbatida, fuqarolarni davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqlarini amalga oshirishning kafolati sifatida qaraladi.

Internetning rivojlanishi va butun dunyoda, xususan, Yevropada integratsiya jarayonlari rivojlanishi davlat organlarining fuqarolik jamiyati oldidagi ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Yevroittifoq doirasida bu qator loyihalarni, xususan, Yevropa Komissiyasining "Sizning ovozingiz Yevropada" loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirila boshlandi. Ushbu loyiha aholi va Yevroittifoq davlatlari hukumatlari o'rtasida migratsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, transport, milliy ozchiliklar huquqlari va boshqa eng dolzarb masalalarni hal qilish uchun Internetda, ijtimoiy tarmoqlarda ikki va ko'p tomonlama keng interaktiv muhokama va muloqotni nazarda tutadi.

Xorijiy mamlakatlarda (AQSh, Yaponiya va Yevroittifoq davlatlarida) jamoatchilik nazoratining e'tiborga loyiq shakllaridan yana biri – "fuqarolik vetosi" instituti hisoblanadi. Unga mamlakat yoki uning alohida mintaqasi yoki munitsipaliteti fuqarolarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni rad etish huquqi, referendumda ovoz berish orqali ularni amal qilmaydigan va qonuniy kuchga ega emas, deb e'tirof etish imkoni sifatida qaraladi. Fuqarolik vetosi orqali aholi vakillik organi faoliyatiga

орыт//Актуальные проблемы российского права, No. 10 (107), 2019, стр. 155-171; Еникеуева Д.Р. Общественный контроль в деятельности органов местного самоуправления (сравнительный анализ опыта России и США) // Государство и право: теория и практика: материалы междунар. науч. конференции. Челябинск, 2011. С. 220–222; Антошин В.А., Ершов Ю.Г. Общественный (гражданский) контроль и публичное управление // Вопросы управления. 2016. № 4. С. 22-31; Рыболовлева Н.С. Конституционно-правовые основы общественного контроля за деятельностью полиции в условиях цифровизации общественных отношений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.ю.н., Академия управления МВД РФ, Москва, 2022, 28 стр.

⁸ Қаранг: Open Government Declaration - <https://www.opengovpartnership.org/process/joining-ogp/open-government-declaration/>; Four Steps to Build Dialogue Between Government and Civil Society - <https://www.opengovpartnership.org/stories/four-steps-to-build-dialogue-between-government-and-civil-society/>; Open Government: Fostering Dialogue with Civil Society, OECD Publishing (2003), Paris, <https://doi.org/10.1787/9789264019959-en.>; Нестеров А.В. О стандарте (Консерсии) открытости «Открытого правительства»// Россия: тенденции и перспективы развития, №. 10-3, 2015, стр. 54-58; Волкова О.Н. Прозрачность, родотчетность и доверие в обществе (Прозрачность, подотчетность и доверие к обществу)//Вопросы экономики, 2015, № 2, стр. 142-148

bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin, buning natijasida fuqarolarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy masalalarni hal qilishdagi faolligi ham oshadi.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha FJI roli va ahamiyatini oshirishda davlat va jamiyat tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlarning yuqori darajasi ijtimoiy sheriklik shaklidagi faol va dinamik hamkorlikni yo'lga qo'yishga asoslanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hanuzgacha tadqiqotchilar orasida "ijtimoiy sheriklik" tushunchasining yagona talqini mavjud emas. Fikrimcha, ijtimoiy sheriklik – bu taraflarning huquq va majburiyatlarga rioya qilish haqidagi o'zaro kelishuvigina emas, balki ular o'rtasidagi yuksak axloqiy qoidalar majmuidir.

Ijtimoiy sheriklik masalasiga oid turli fikrlarning tahlili asosida ijtimoiy sheriklikka davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asosga tayangan holda o'zaro hamkorligi va manfaatlarni uyg'unlashtirish asosida jamiyatda mavjud bo'lgan muayyan ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan muloqot hamda konsensusga kelish tizimidir, deb ta'rif berish mumkin.

O'zbekiston taraqqiyotining uch strategiyasini⁹ amalga oshirish doirasida, "Yangi O'zbekiston — adolatli fuqarolik jamiyati" konsepsiyasini hayotga tatbiq etish orqali inson qadr-qimmati, uning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, madaniy va boshqa huquqlari va erinliklarini ta'minlash, farovonligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari roli va ahamiyatini tubdan oshirishga xizmat qiluvchi **300 dan** ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar, Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya, Gender tengligiga erishish strategiyasi, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi kabi 40 dan ziyod turli strategiya va konsepsiyalar, xususan, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi, 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan va kuchga kirgan.

2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga tadqiqot predmetiga taalluqli qator o'ta muhim yangiliklar kiritildi. Bunda Konstitutsiya "**Inson qadri uchun**" g'oyasini hamda insonning qadr-qimmati, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o'rinda turishini nazarda tutuvchi "**Inson – jamiyat – davlat**" degan mamlakatdagi islohotlarning bosh paradigmasini hayotga tatbiq etish nuqtai nazaridan kelib chiqib yaratilgan. O'zbekistonning ochiq va adolatli fuqarolik jamiyat sifatidagi konstitutsiyaviy o'ziga xosligini belgilash, uning institutlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi ustuvor vazifalarga alohida e'tibor qaratildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Yangi O'zbekistonda davlat va fuqarolik**

⁹ Қаранг: 11.09.2023 йилдаги "Ўзбекистон – 2030" стратегияси тўғрисида"ги ПФ-158-сон Фармони – <https://lex.uz/docs/6600413>;

jamiyati institutlari o‘rtasidagi inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ijtimoiy sheriklik” deb nomlangan bo‘lib, unda Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ijtimoiy sheriklik, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini ta‘minlash, inson huquqlari va Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda O‘zbekiston tajribasi tadqiq qilingan.

Xalqaro tajriba inson huquqlari va erkinliklari, turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar va sinflar manfaatlarini ta‘minlash va muhofaza qilish, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-gumanitar, ekologik vazifalarni hal etish, jamiyat barqaror rivojlanishini ta‘minlash, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ijtimoiy sheriklik alohida o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda. Mamlakatda ijtimoiy sheriklik tamoyillarining amal qilishi milliy iqtisod, barqaror rivojlanish, aholi farovonligi va turmush darajasi o‘shining garovi ekanligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz qonunchiligida davlat va FJI hamkorligi va ijtimoiy sheriklik munosabatlarini tartibga soladigan **100 dan ortiq** normativ-huquqiy hujjatlar mavjud¹⁰ va ularni quyidagi **3 guruhga** ajratish mumkin.

Birinchi guruh. Mazkur hamkorlikning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini belgilovchi Konstitutsiya normalari va maxsus qonunlar;

Ikkinchi guruh. Ayrim moddalarida aynan davlat va nodavlat tashkiloti hamkorligining u yoki bu jihatlarini aks ettirgan muayyan sohaviy qonunlar.

Uchinchi guruh. Ijtimoiy sheriklik munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi qonunosti hujjatlari. Bugungi kunda mazkur sohada ham **300** dan ortiq qonunosti hujjatlari mavjud.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish kabi sohalarda Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasining faoliyati ham alohida o‘rin tutadi. Zero, ko‘pgina xorijiy, jumladan Yevroittifoq davlatlaridan farqli o‘laroq, O‘zbekistonda FJIlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini aniqlash, ularni taqsimlash, foydalanishni nazorat qilish bilan bog‘liq masalalar ijro etuvchi hokimiyat organlari tominidan emas, balki oliy qonun chiqaruvchi organ – parlament tomonidan amalga oshiriladi.

Ma‘lumki, 2015-yilda BMT butunjahon sammitida 2030-yilgacha bo‘lgan barqaror rivojlanish kun tartibi, uning 17 ta o‘zaro bog‘liq, bir-birini mustahkamlovchi va to‘ldiruvchi Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va ularga erishish borasidagi 169 ta vazifa tasdiqlandi.

BRMlar kompleks (uyg‘un) va bo‘linmas xarakterga ega bo‘lib, barqaror rivojlanishning “uchta ustuni” – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni va

¹⁰ Қаранг: Ахмедшаева М.А., Нажимов М.К. Ижтимоий шериклик – демократик янгиланишларнинг муҳим омили. Халқ сўзи газетасининг расмий веб-сайти: <http://xs.uz>; Хамидова К. Ижтимоий шериклик муносабатларининг мустаҳкам ҳуқуқий асоси. Адолат газетасининг расмий веб-сайти: <http://adolat.uz>; Ширинов Ж. Ижтимоий шериклик – фуқаролик жамиятининг муҳим шарти. Ҳуқуқ ва бурч журналининг расмий веб-сайти: <http://huquq.burch.uz>; Яшнарьбеков А.Я. Ижтимоий шерикликнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш – давр талаби. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 2012. – № 1. – В. 24-26.

barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi islohotlar falsafasi inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, mamlakatning 2030-yilgacha BMTning barqaror rivojlanish kun tartibini qo'llab-quvvatlashi, shuningdek BMTning 2030-yilgacha bo'lgan Global kun tartibining BRMga erishish g'oyasiga asoslanadi. Xususan, O'zbekistonning uchta taraqqiyot strategiyasi (Harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston — 2030" strategiyasi) "Kun tartibi — 2030"ga hamohangdir.

Ularga muvofiq ravishda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida 16 ta milliy maqsad hamda ularga samarali erishish yo'lida 126 ta vazifa belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning 2030-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasi faoliyati tashkil etildi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda "Barqaror rivojlanish sohasida "Kun tartibi – 2030" amalga oshirish to'g'risida" ixtiyoriy fuqarolik (muqobil) sharhlarini tayyorlash bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

"Kun tartibi – 2030" tahlili asosida kuchli va faol fuqarolik jamiyati barqaror rivojlanish, tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikning zarur sharti sanalishini ta'kidlash mumkin¹¹.

